



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGINING BUYRUG‘I

2025 y. „ 29 „ iyul

№ 01-10/164

### **Yoshlar o‘rtasida “Men radikalizmga qarshiman” nomli onlayn ko‘rik-tanlovni tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston-2030” strategiyasining “xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish yo‘nalishi bo‘yicha 2023-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasining 12.2-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida

### **B U Y U R A M A N:**

1. 2025-yil avgust oyidan oktabr oyigacha bo‘lgan muddatda yoshlarni radikalizm, ekstremizm va yot g‘oyalarga qarshi kurashishga qaratilgan onlayn ko‘rik-tanlov tashkil etilsin.

2. Onlayn ko‘rik-tanlovni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga, sarf-xarajatlar smetasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xarajatlar Agentlik markaziy apparatining Yoshlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshirilsin.

4. Yoshlar ishlari agentligi:

Davlat xaridlarini tashkil etish, energiya tejamkorligini ta‘minlash va xo‘jalik bo‘limi (I.Ziyodilloev)ga 2-ilovadagi tovar-moddiy boyliklarni belgilangan tartibda xarid qilish;

Moliya-iqtisod bo‘limi (J.Rasulov)ga xarajatlar uchun belgilangan pul mablag‘larini amalga oshirish;

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy savodxonligini oshirish, yoshlar huquqbuzarligi va jinoyatchiligi profilaktikasiga ko‘maklashish bo‘limi (A.Alimov)ga onlayn ko‘rik-tanlovni tashkil etish va amalga oshirilgan ishlar natijalari yuzasidan har oyning 5-sanasiga qadar va tanlov yakunlangandan so‘ng Yoshlar ishlari agentligining Axborot-tahlil va ijro nazorati bo‘limi hamda Moliya-iqtisod bo‘limiga belgilangan tartibda hisobot topshirish vazifalari yuklansin.

5. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish direktor o‘rinbosari A.Muminov zimmasiga yuklansin.

**Direktorning  
birinchi o‘rinbosari**



**D. Kattaxanova**

**Yoshlar o'rtasida "Men radikalizmga qarshiman" nomli onlayn  
ko'rik-tanlovni tashkil etish tartibi to'g'risidagi  
NIZOM**

1. **"Men radikalizmga qarshiman!"** loyihasi ommabop loyiha bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lgan yoshlar ishtirok etishi mumkin.

2. Mazkur loyihani o'tkazishdan maqsad — Yurtimizda ekstremizm va radikalizm g'oyalarini oldini olish bo'yicha amaliy ishlar va chora-tadbirlar zamirida yurt-tinchligini asrash, yoshlarni buzg'unchi va yod qarashlardan saqlash, diniy qadriyatlarni himoya qilish singari maqsadlar yotadi. Bunday tadbirlar esa diniy-ma'rifiy targ'ibotlar va huquqiy bazani mustahkamlash ishlarini tashkil qilish yo'li bilan samaradorlikni yanada oshiradi. Shuningdek mazkur jarayonlar orqali O'zbekistonda radikalizm va ekstremizmni oldini olishda o'ziga xos tajriba shakllanishiga xizmat qilishdan iborat.

3. Ko'rik-tanlov ikki yo'nalishda onlayn tarzda:

*birinchi yo'nalish (5-avgustdan 20-oktabrgacha)*- 14-18 yoshlilar o'rtasida insholar tanlovi;

*ikkinchi yo'nalish (5-avgustdan 20-oktabrgacha)*-19-30 yoshlilar o'rtasida video roliklar tanlovi o'tkaziladi.

**Taqdim etiladigan insholar va videoroliklar radikalizm g'oyalariga qarshi tayyorlanishi lozim.**

4. Tanlovning har ikki yo'nalishi ham 5-avgust kuni @antiradikalbot Telegram botida start oladi va 5-oktabrga qadar davom etadi. Ishtirokchilar botda so'ralgan savollarga javob berib, o'zlarining ijodiy ishlarini o'zbek, rus hamda qoraqalpoq tilida (pdf, mp4, avi) shaklda jo'natadilar.

5. @antiradikalbot dan foydalanishda foydalanuvchilar to'liq ro'yxatdan o'tishlari va telefon raqamlarini kiritishlari lozim. To'liq ro'yxatdan o'tmagan yoki noto'g'ri ma'lumotlarni kiritgan foydalanuvchilarning ishtiroki haqiqiy emas, deb hisoblanadi. Botga quyidagi ma'lumotlar kiritilishi zarur:

a) *F.I.O;*

b) *Qaysi viloyat, tuman, mahalla nomi;*

d) *Ta'lim muassasasi nomi;*

e) *Yoshi;*

f) *Tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasi yoki Passport (ID), JSHSHIR ma'lumotlari;*

g) *Bog'lanish uchun qo'shimcha telefon raqam;*

h) *Insho yoki videoroligini yuklash.*

*qabul qilinmaydi*). Muddat tugagandan so'ng topshirilgan ijodiy ishlar qabul

qilinmaydi. Tanlovda bir ishtirokchi faqat bir marta ishtirok eta oladi hamda bitta turda ikki yoki undan ortiq marta qatnashgan ishtirokchilarning natijasi inobatga olinmaydi.

7. Taqdim etilgan ijodiy ishlar malakali ekspertlar tomonidan baholanadi. Ikki ishtirokchining ijodiy ishi malakali ekspertlar guruhi tomonidan bir xil deb topilsa ikkala ishtirokchi ham tanlovdan chetlashtiriladi va ularning natijasi inobatga olinmaydi.

8. @antiradikalbot da tanlovga qabul qilinadigan ijodiy ishlarni qabul qilish muddati tugagandan so'ng barcha ijodiy ishlar malakali ekspertlarga tekshirish va ularni baholash uchun taqdim etiladi. Ishtirokchilardan ijodiy ishlarni yaratishda plagiatlik holatidan foydalanmaslik talab etiladi.

9. O'zlarining ijodiy ishlarini telegram bot orqali jo'natgan ishtirokchilar botdan to'liq ro'yxatdan o'tib ijodiy ishlarini jo'natganlaridan so'ng **“Siz botdan muvaffaqiyatli ro'yxtadan o'tdingiz va tanlov ishtirokchisiga aylanganingiz bilan tabriklaymiz!”** mazmundagi xabar jo'natiladi. Shundagina ishtirokchi berilgan topshiriqlarni to'liq yakunlagan hisoblanadi. Taqdim etilgan ijodiy ishlar 5-oktabrga qadar yig'ib boriladi. Tanlov yakunida har ikki yo'nalishda eng yuqori natija ko'rsatgan 6 nafar (*I yo'nalishda 1, 2, 3-o'rin, II yo'nalishda 1, 2, 3-o'rin*) ishtirokchi ijtimoiy tarmoqlar (*t.me/yoshlaragentligi va t.me/Yoshlar\_va\_Qonun telegram kanallari*) “Yoshlar” va “Mening yurtim” telekanallari orqali e'lon qilinadi.

10. 5-oktabrga qadar @antiradikalbotga taqdim etgan ijodiy ishlardan eng yuqori ball to'plagan har ikki yo'nalishda 1, 2, 3-o'rnlarni olgan 6 nafar ishtirokchi belgilangan tartibda taqdirlanadi.

11. Tanlovning ikki yo'nalishida ekspertlar tomonidan eng yaxshi deb topilgan mazmunli, sifatli va kreativ yondashilgan ijodiy ishlar g'olib deb topiladi.

12. Tanlovda 1-, 2-, 3-o'rnlarni qo'lga kiritgan har bir ishtirokchi Yoshlar ishlari agentligining qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlanadi.

Yoshlar ishlari agentligining  
2025-yil 19 -iyuldagi 01.10/164-son buyrug'iga  
2-ilova

**Yoshlar o'rtasida "Men radikalizmga qarshiman" nomli onlayn  
ko'rik-tanlovni tashkil etish yuzasidan sarf-xarajatlar  
SMETASI**

<b>№</b>	<b>Xizmat nomi</b>	<b>Miqdori</b>	<b>Narxi</b>	<b>Jami</b>
1.	Noutbuk (1-o'rin)	2	6 000 000	12 000 000
2.	Planshet (2-o'rin)	2	3 000 000	6 000 000
3.	Televizor (3-o'rin)	2	2 000 000	4 000 000
<b>Jami:</b>			<b>22 000 000</b>	